

## ISHONCH XISSINING TURLARI, FUNKTSIYALARI VA MEZONLARI

D.M.G‘aybullayeva

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot  
instituti tayanch doktoranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonch xissining komponentlari, turlari, funksiyalari, ishonch xissini rivojlantirishda ta’sir etuvchi omillarning roli haqida bayon etilgan

**Kalit so‘zlar:** ishonch, mezon, birlik, component.

### TYPES, FUNCTIONS AND CRITERIA OF TRUST

### ABSTRACT

The article describes the components, types, functions of self-confidence of a person today, and the role of influencing factors in the development of self-confidence

**Key words:** trust, criterion, unit, component.

Bugungi kunga kelib, ishonch xissining turlari umumiy qabul qilingan tasnifi mavjud emas. Ko‘plab olimlar ishonch xissining turlari va shakllarini aniqlash uchun turli xil mezonzlarni ilgari surdilar.

Hozirgi paytda insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchi eng ko‘p o‘rganilgan muammo hisoblanadi. T.P.Skripkina o‘ziga bo‘lgan ishonchning optimal darajasini rivojlantirish shaxsning nafaqat yaxlitligining, balki ulg‘ayganligining ham ko‘rsatkichi hisoblanadi. Uning qayd etishicha, insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchi olamga bo‘lgan ishonchsiz bo‘lishi mumkin emas, aks holda faqat yaxlit tizim sifatida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan “inson va olam” tizimi buzilib ketadi.

**Bilimga asoslangan ishonch:** shaxslararo munosabatlarda, insonlar bir-biri bilan tez-tez o‘zaro aloqa munosabatlarida paydo bo‘ladi va bir-birining shaxsiy individual psixologik xususiyatlari haqida allaqachon tasavvur hosil qila oladi. Bu O‘ziga xos ishonch. U boshqa odamni biz kabi qabul qilganda, aloqa nuqtalari ko‘p bo‘lganda (umumiy manfaatlar, o‘xshash his-tuyg‘ular, g‘oyalar, tamoyillar va boshqalar) shakllanadi. Ushbu tasnif shaxsda ishonch xissi darajasini aniqlash imkonini beradi, lekin u o‘zaro ta’sir jarayonida ishonch xissini sezilarli darajada o‘zgarishi va oldingi darajalarga qaytishi mumkinligini hisobga olmaydi [2].

Skripkina va A.B. Kupreychenko o‘ziga va boshqa insonlarga bo‘lgan ishonch xissini o‘rganish usullarini quyidagicha izohlaydi:

1. O‘zingizga ishoning. Bu shaxsning his-tuyg‘ulari, fikrlari, sezgilarini va boshqa psixik jarayonlariga, shaxsning o‘z-o‘ziga ishonishidir. O‘ziga bo‘lgan ishonch xissi haqida o‘zini-o‘zi qabul qilish haqida gapirish mumkin, bu odamga o‘zini ishonchli his qilishiga, shaxning o‘z imkoniyatlarini, qobiliyatini turli tomonlardan ochilishiga imkon beradi [3].

O‘ziga bo‘lgan ishonch xissi boshqa odamlarga bo‘lgan ishonchga sezilarli darajada ta’sir qilishi isbotlangan. O‘ziga bo‘lgan ishonch daroji har doim ham boshqalarga bo‘lgan ishonch daroji bilan ijobiy bog‘liq emas.

2. Boshqa odamlarga ishoning. Bu ishonch o‘zaro ta’sirning muayyan predmetiga qaratilgan. Demak, u “biz” munosabatni shakllantirish uchun qo‘llaydigan ma’lum mezonlarga asoslanadi. Shu bilan birga, bir xil yoki turli xil mezonlar turli odamlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin .Boshqa odamlarga bo‘lgan ishonch umumiyligi ishonch deb ataladigan narsa bilan chambarchas bog‘liq va uning shakllanishiga ta’sir qiladi. Boshqacha aytganda, barcha odamlarning yoki ularning ko‘philiginining o‘ziga bo‘lgan ishonchsizligi va ishonchlilikiga oid umidlarga asoslanib, atrofdagi hammaga ishonch tushuniladi. Bundan kelib chiqqan holda, “ishonch” va “ishonchsizlik”ni shakllantirishda ma’lum mezonlarga asoslanib ko‘rish umuman odamlarga bo‘lgan ishonish shaxsning o‘zining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib namoyon bo‘ladi, deb taxmin qilish mumkin. [4].

#### Ishonch mezonlari va tarkibiy qismlari

Ishonch mezonlari - bu shaxsning boshqa odamlarga ishonish yoki ishonmaslikni bildiradi. Bu muammo A.B.Kupreychenko tomonidan batafsil o‘rganilgan.

Ushbu mezonlarni aniqlash uchun A.B. Kupreychenko va boshqa olimlar shaxsning individual psixologik xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyat), shaxsning xissiy-irodaviy sohasi ( hissiyot va iroda), bundan tashqari shaxsning intellekti va axloqiy fazilatlariga ta’sir qiluvchi omillar, shaxsda o‘ziga bo‘lgan ishonch xissini shakllantirishda yuqoridagilarga asoslanib o‘rganish mumkinligini ta’kidlab o‘tgan.

#### Ishonch xissining komponentlari quyidagicha:

1. Ishonchlilik. Shaxsning qiyin vaziyatlarda yordamga kelishi, o‘zini boshqara olishi, qo‘llab-quvvatlashi mumkin bo‘lgan boshqa shaxs haqidagi fikr, taassurot, qarashlarni aks ettiradi..

2. Birlik. Shaxsning individualligini bildiradi. Shaxsning qadriyatlar umumiyligi, dunyoqarash, g‘oyalari va maqsadlarni aks ettiradi.

3. Bilim. Shaxsga (“ishonch”va “ishonchsiz”lik), turli xil hayotiy vaziyatlarda uning xatti-harakatlarini bashorat qilish qobiliyati haqidagi bilim g‘oyasini aks ettiradi. [19].

**Mehr.** Ishonchning tarkibiy qismi bo‘lmasa-da, lekin ma’lum sharoitlarda ularning o‘rnini bosishda muhim rol o‘ynaydi. Mehribonlik tushunchasi ishonch xissiga taassurotlarni yorqin hissiy rangda munosabatlarni aks ettiradi, ya’ni u qanchalik yoqimli bo‘lsa, shaxs o‘zini sevilgan, ijobiy hissiyotlarni his eta oladi.

Shunday qilib, ishonch xissining uchta komponenti va uning o‘rnini bosuvchi koponentlar shaxsda o‘ziga bo‘lgan “ishonch” va “ishonchsiz”lik xissining mezonlari sifatida o‘rganiladi. Aynan shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonch xissini rivojlantirishda foydalilaniladi, alohida mezonlari sifatida ishlaydi yoki asosiy komponentlar bilan birlashtiriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Ильин Е.П. Психология доверия. СПб: Питер, 2013. 288 с
2. Леонова И.Ю. Доверие: понятие, виды и функции // Вестн. Удмуртского университета. 2015. №3-2. С. 34-41
3. Биличенко Е.Н. Доверие к себе как фактор самоактуализации личности // Теория и практика общественного развития. 2012. №9. С. 92-94
4. Купрейченко А.Б. Психология доверия и недоверия. М.: Институт психологии РАН, 2008. 564 с